



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 4-sentabr

№ 2047

O'zbekiston Respublikasining ayrim sudlariga sudyalarni tayinlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunning 69, 71, 72-moddalari va "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunning 7, 17-moddalariga muvofiq:

Sadikov Osim Adilovich – sudyalik vakolati muddati davriga Andijon viloyat sudining iqtisodiy ishlar bo'yicha sudyasi lavozimiga tayinlansin;

Mamarayimov Ilxom Mamaraximovich – sudyalik vakolati muddati davrining besh yil muddatiga Toshkent viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Yangiyo'l shahar sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin;

Isarov Kaxramon Irisaliyevich – sudyalik vakolati muddati davrining besh yil muddatiga Toshkent viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Chinoz tuman sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Toshkent viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Yangiyo'l shahar sudining raisi lavozimidan ozod qilinsin;

Arslanov Jaxongir Yuldashovich – sudyalik vakolati muddati davriga Samarqand viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Samarqand shahar sudi raisining o'rinbosari lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Samarqand viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Nurobod tuman sudining raisi lavozimidan ozod qilinsin;

Allayev Odil Ne'matovich – sudyalik vakolati muddati davrining besh yil muddatiga Samarqand viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Kattaqo'rg'on tuman sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Samarqand viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Toyloq tuman sudining raisi lavozimidan ozod qilinsin;

Karimov Sarvar Xasanovich – sudyalik lavozimida bo'lishning muddatsiz davriga Toshkent viloyat sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudyasi lavozimiga tayinlansin;

Qodirov Samadjon Adxamjanovich – sudyalik vakolati muddati davriga Toshkent viloyat sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Namangan viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Namangan shahar sudining raisi lavozimidan ozod qilinsin;

Jabbarov Ibroxim Sultonmuratovich – sudyalik vakolati muddati davrining besh yil muddatiga Namangan viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Namangan shahar sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Namangan viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Chortoq tuman sudining raisi lavozimidan ozod qilinsin;

Mustafayev Baxtiyor Ulashovich – sudyalik vakolati muddati davriga Surxondaryo viloyati fuqarolik ishlari bo'yicha Denov tumanlararo sudining raisi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Surxondaryo viloyati fuqarolik ishlari bo'yicha Denov tumanlararo sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin;

Abdullayev Bobur Maxmudovich – sudyalik vakolati muddati davriga Xorazm viloyat sudining fuqarolik ishlari bo'yicha sudyasi lavozimiga qayta tayinlansin va shu munosabat bilan Xorazm viloyati fuqarolik ishlari bo'yicha Urganch tumanlararo sudining sudyasi lavozimidan ozod qilinsin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov